

# CANVA PLATFORMASI

[Platforma asoschilari] Avstraliyalik Melanie Perkins, Cliff Obrecht, Cameron Adams



Canva platformasining ilk talqini 2013-yilning 1-yanvarida ishga tushirilgan. U hozirda SMM, posterlar, taqdimotlar, hujjatlar va boshqa vizual ishlarni tayyor shablonlar asosida yaratish mumkin bo'lgan bepul grafik dizayn platformasi hisoblanadi.

Canva ko'plab foydalanuvchilar tomonidan ajoyib bo'lgan dizayn yaratish, infografikalar tayyorlash, kitob muqovalarini yoki butun boshli taqdimotlarni tayyorlash uchun onlayn vosita sifatida qaraladi, lekin platformaning imkoniyatlardan kelib chiqilsa uni ta'lif platformasi sifatida ham ancha muvaffaqiyatli qo'llash mumkin.

The screenshot shows the Canva platform's main interface. On the left, there's a sidebar with categories like 'Shaxsiy', 'Andozalar', 'Biznes', 'Ijtimoiy tarmoqlar', 'Ta'lif', 'Video', 'Marketing', 'Mahsulotlarni chop etish', 'Kartalar va taklifnomalar', 'Work Kits', 'Suratlar', 'Iconok.', 'Presentations online', 'Jamo yaratishing', and 'Chizildon'. The main content area has a green header with the text 'Canva bilan o'ranging, o'rganing va dizayn yaratiting'. Below it, there's a section titled 'Yuqori sifatli ta'lif andozalari bilan tanishing' featuring several thumbnail previews of templates such as 'Literature Project', 'THE ALPHABET', and 'All about a BOOK'. There are also sections for 'Maktabgacha', 'Bolalar bog'chasi', '1-sinf', '2-sinf', '3-sinf', '4-sinf', '5-sinf', and '6-sinf'.


[Canva platformasining ta'lif ishtirokchilari uchun yaratilgan oynasi]

Avvalambor platformadan o'qituvchilar va o'quvchilar uchun bepul foydalanish imkoniyati yaratilgan bo'lib, unda ta'limda foydalanish mumkin bo'lgan andozalar uchun alohida menyu va funksiyalar qo'shilgan, bu esa o'z navbatida platformada ta'limga alohida e'tibor qaratilganini bildiradi. Undan tashqari Canva platformasidan o'zbek tilida ham foydalanish mumkin.

Canva yordamida platforma foydalanuvchilari tomonidan estetik did bilan yaratilgan raqamli ta'lif resurslaridan foydalanib, ularni o'zingizga moslab o'zgartirib dars jarayonida o'quvchilarning diqqat markazida bo'lish va dars jarayonini qiziqarli tashkillashtirishingiz mumkin. Buning uchun o'z profilingizni o'qituvchi sifatida yaratib olishingiz kerak bo'ladi.

Canva keng qamrovli multimedia resurslari va formatlarni o'zida qo'llab quvvatlaydi hamda ular yordamida raqamli ta'lif resurslarini yaratishga imkon beradi. Ushbu resurslardan taqdimotlar, plakatlar, tasvirli pdf fayllar, video va audio yozuvlar hamda musiqalar yaratish uchun foydalanish mumkin. Shu bilan bir qatorda platformada jamoaviy ishlashni ham tashkil qilish mumkin, bu yerda, o'qituvchilar va o'quvchilar orasida hamkorlikni tashkil qilib o'z

ishlarini Google Classroom, Microsoft Team yoki Canvaning o'zida ulashish imkonini ta'minlaydi va jamoaning har bir a'zosi bu imkoniyatlardan onlayn yoki sinf xonasining o'zida foydalanishi mumkin, o'qituvchi esa o'z fikrlarini izoh sifatida qoldirish orqali qilingan ishlarni baholashi mumkin.



[Canva platformasida ta'limga ishtirokchilariga yaratilgan xizmat turlari]

### **Canvaning ta'limga asosiy imkoniyatlari va afzalliklari:**

- ✓ Kreativ fikrlash;
- ✓ O'quv rejasini ishlab chiqish;
- ✓ O'quvchilarga o'quv rejalarini tuzishda yordam berish;
- ✓ Taqdimotlar, audio, video va tasvirli multimedia resurslari yordamida darsliklarni vizuallashtirish;
- ✓ Jamoaviy ishslash.

Bu resurslar ta'limga uchun ideal muhit yaratib, raqamli va an'anaviy ta'limga tashkil etishda foydalanish imkonini beradi.



**Canva platformasidan foydalanish bo'yicha video qo'llanma:**

[@Raqamlisavodxonlik youtube kanali](https://www.youtube.com/@Raqamlisavodxonlik)

